

SA EDI SHAKLINING LISONIY XUSUSIYATI VA UNING NAMOYON BO'LISHI

Safarov Firuz Sulaymonovich

Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc),

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

f.s.safarov@buxdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11632546>

Annotatsiya. Maqolada -sa edi shaklining lisoniy xususiyati va uning o'zgarishi tahlil qilingan. -sa edi shakli istak, hozirgi, o'tgan va kelasi zamon semalariga betaraf. Shuning uchun to'rtala sema ham qulay kontekstda namoyon bo'ladi. Bu shakl istak semasini ifodalaganda gap shaklan ham mazmunan ham tobe bo'lmaydi. Shuning uchun -sa edi shaklining sintaktik xususiyati tugallanganlikdan iborat. Nutqiy maqsad-u vazifa taqozo qilsa -sa edi shakli oydinlashtiruvchi kontekstda qo'llanadi. Oydinlashtiruvchi kontekstda -sa edi shakli ifodalagan istak semasi koshki, zora, qani endi, qani edi, koshkiydi, qaniydi yordamchi so'zlari vositasida kuchaytiriladi. Bu so'zlar -sa edi shakliga ma'nodosh bo'lib konnotatsiya ifodalashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: -sa edi shakli, istak semasii, modal ma'no, subyektiv ma'no, ma'nodoshlik, konnotatsiya, tugallanganlik, hozirgi zamon, kelasi zamon, qulay kontekst, oydinlashtiruvchi kontekst.

Bu shakl fe'lning o'zak va negizidan -sa qo'shimchasi hamda edi to'liqsiz fe'li bilan yasaladi. Bu shaklda shaxs, son va hurmat qo'shimchasining to'liqsiz fe'lga qo'shilib kelishi kam uchrab uning o'rnida ko'pincha yasama shakl ishlatiladi. Yasama shakl to'liqsiz fe'lning -ydi tarzida qo'llanishidan hosil bo'ladi: olsaydim, olsayding kabi.

-sa edi shakli istak, hozirgi, o'tgan va kelasi zamon semalariga betaraf¹. Shuning uchun to'rtala sema ham qulay kontekstda namoyon bo'ladi. Bu shakl istak semasini ifodalaganda gap shaklan ham mazmunan ham tobe bo'lmaydi. Shuning uchun -sa edi shaklining sintaktik xususiyati tugallanganlikdan iborat. Tugallanganlik bu shaklda belgilangan bo'lib kontekstda noqulaylik bo'lmasa voqelanaveradi. -sa edi shaklining lisoniy xususiyati shundan iborat bo'lib uni jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin.

Shakl	Istak	O'tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon	Tugallanganlik
-sa edi	+/-	+/-	+/-	+/-	+


¹ Bu shakl shart semasiga ham betaraf. Bu o'rinda istak semasi tahlil qilinadi.

-sa edi shaklida o'tgan zamon semasiga betaraflik to'liqsiz fe'lning xususiyati bilan bog'liq. -sa hozirgi va kelasi zamonga betaraf bo'lganidan istak semasi boshqacha ko'rinishda namoyon bo'ladi ya'ni so'zlovchining subyektiv munosabati bilan yo'g'riladi.

-sa edi shaklining sintaktik xususiyati tugallanganlik bo'lganidan bu shaklning istak semasini ifodalashi uchun qulay kontekst vazifasini sodda gap bajaradi: – Razzog'im urushdan omon qaytsa edi! (H. G'ulom, Mash'al, 267) Bu misolda -sa edi shaklida istak semasining namoyon bo'lishiga urg'u (urg'u -sa qo'shimchasiga tushgan) va tugallanganlik qulaylik tug'dirgan. Gapda -sa edi shakli so'zlovchining istagini ifodalagan. Istak semasi kuchaytirilgan tarzda ifodalangan bo'lib so'zlovchining his-tuyg'usi bilan yo'g'rilgan. So'zlovchining his-tuyg'usi ohang vositasida ham ifodalangan bo'lib uni ko'rsatish uchun yozuvda undov belgisi qo'yilgan. -sa edi shakli istak semasi bilan birga kelasi zamon semasini ifodalagan. Kelasi zamon semasiga fe'l o'zagi (qayt)ning lug'aviy mazmuni ya'ni bu fe'lning intiholi harakatni bildirishi qulaylik tug'dirgan. Shunga ko'ra kontekst minimal ko'rinishga keltirilsa ham kelasi zamon semasi ifodalanadi: qaytsa edi.

His-tuyg'uning yuqori darajasini ifodalash uchun ohang bilan birga undov so'z ham ishtirok etadi: – Men oxirgi kunlarni soat sanab kech qilar edim. Har kuni pochtaga qatnab... **Eh**, bilsangiz edi! (P. Qodirov, Uch ildiz,) Misoldagi -sa edi shakli qo'llangan gap undov so'zni hisobga olmaganda bu shakl uchun hajmiga ko'ra eng kichik, xususiyatiga ko'ra istak semasi uchun xususiyatiga ko'ra qulay kontekst. Istak semasining ifodalanishiga urg'uning to'liqsiz fe'ldan oldingi bo'g'inga tushganligi va sintaktik tugallanganlik xususiyatining namoyon bo'lishi qulaylik tug'dirgan. -sa edi shakli istak semasi bilan birga kelasi zamon semasini ifodalagan. Kelasi zamon semasiga fe'l o'zagi (bil)ning lug'aviy ma'nosi ya'ni bu fe'lning intihosiz harakatni bildirishi qulaylik tug'dirgan.

Nutqiy maqsad-u vazifa taqozo qilsa -sa edi shakli oydinlashtiruvchi kontekstda qo'llanadi. Oydinlashtiruvchi kontekstda -sa edi shakli ifodalagan istak semasi koshki, zora, qani endi, qani edi, koshkiydi, qaniydi yordamchi so'zlari vositasida kuchaytiriladi. Bu so'zlar -sa edi shakliga ma'nodosh bo'lib konnotatsiya ifodalashga xizmat qiladi. Quyidagi misolda qaniydi so'zi qo'llanib istakni kuchaytirishga xizmat qilgan: **Qaniydi**, ko'nglidagi borini xuddi ilgariqiday ko'zlari aytib tursa edi. (Sh. Bo'taev, Qo'rg'onlangan oy, 195) Bu misol -sa edi shaklining istak semasi uchun ham qulay ham oydinlashtiruvchi kontekst. Mazkur semaning ifodalanishiga urg'u va tugallanganlik qulaylik tug'dirgan. Shunga ko'ra qaniydi so'zi tushirib qoldirilsa ham istak ifodalanadi-



yu ta'kid anglashilmaydi. Istak semasi ikkita vosita bilan ifodalanganidan so'zlovchining istagi va his-tuyg'usi kuchli darajada namoyon bo'lgan. Istak semasining yordamchi so'z vositasida kuchaytirilishi sababini bilish uchun makrokontekstga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Misoldagi ilgarigiday so'zi ham shunga ishora qilib turibdi. Oldingi gaplardan so'zlovchining Mavluda ismli yosh juvon, -sa edi shaklidagi ish-harakat subyeksi (ko'zlari)ning egasi uning eri Murtazo ekanligi ma'lum bo'ladi. Murtazoning ilgari qanday odam bo'lganini bilish uchun asarning boshlanish qismidan xabardor bo'lish lozim bo'ladi. Asarning boshlanish qismidan ma'lum bo'ladiki Murtazo yoshligida, uylanmasidan oldin mo'min-qobil, rahmdil, ko'ngli toza va qo'rqqoq yigit bo'lgan. U qo'rquvini yengadi biroq qo'rquvni yengaman deb qalbidagi ezgu hislardan ajralib qoladi. Qo'pol, takabbur, shafqatsiz kimsaga aylanib qoladi. Xotiniga ham qo'pollik qiladigan, uni so'kadigan bo'ladi. Misol keltirilgan oldingi abzasda Mavluda Murtazoning oti Gulbodomga qarab shunday deydi: Gulbodom ayt, nega bunday bo'lib qoldi? Bilasanmi, Gulbodom menga azob bersayam, ursayam, men unikiman. Uniki bo'lib qolishni istayman. U esa... u esa... Nega bunday bo'lib qoldi, Gulbodom? Ko'zlarining tub-tubida hamon o'zimga tanish Murtazoni ba'zan ko'rganday bo'laman-u, u darrov qayoqqadir yo'qolib qoladi. Chunki, hozirgisi ilgarigisiga o'rin bermaydi. Yovuz bo'lishni, qahri qattiq bo'lishni maqsad qilib olganday. Shuni sen ham bilasanmi? U meni ham, Ibodni ham, seni ham ham o'ylamayotgandek. Zora, aytayotgan gaplarimning teskarisi bo'lsa edi. Uning fikri yodi yovuz bo'lishda, yovuz bo'lishda. Oh, qanchalik qo'rqqinchli-ya?! (O'sha asar, 195-bet) Aytilganlardan keltirilgan misolda istak semasining yordamchi so'z bilan kuchaytirilishi sababi ayon bo'ladi. Gapda -sa edi shakli istak semasi bilan birga hozirgi zamon semasini ifodalagan. Hozirgi zamon semasiga tur ko'makchi fe'lining davomlilik va holat semalari qulaylik tug'dirgan.

References:

1. Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. Тошкент: Фан, 2004.
2. Зикриллаев Ф. Руҳ ва тил. Тошкент: Фан, 2018.
3. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1957. – 527 б.
4. Safarov, F. (2024). THE COHERENCE OF MEANS INDICATING II PERSON MEANING IN THE UZBEK LANGUAGE. Development and innovations in science, 3(4), 16-21.
5. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро

давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция.

6. Safarov, F. S. (2023, August). SYNONYMY OF AFFIXES AND WORDS IN THE UZBEK LITERARY LANGUAGE. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 287-291).

7. Majidovna, N. S., & Saidakhmedovna, U. D. (2020). Expression of the realities and people of the war period through mythological images. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(8), 462-466.

8. Rustamova, G., & Sharofova, G. (2024). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 43-46.

9. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.

10. Bakhronovna R. G. Irony as a Type of Movement in Artistic Literature //Journal of Intellectual Property and Human Rights. – 2024. – T. 3. – №. 4. – C. 231-235.

11. Sulaymonovich, S. F. (2024). The Synonymity of Means Indicating 1st Person Meaning in Uzbek Literary Language. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 113-119.

